

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №2 (33)



ISSN 2181-9505

Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE

INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №2 (33)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi Abdildina, R.J. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor Skarantino, L.M. – DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, falsafa fanlari doktori (Rossiya) Muassislar: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O‘zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers MCHJ Elc.uz Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.	Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Bosh muharrir o‘rinbosari: Aslanova, R. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas’ul muharrir: Muhamedova, Z.M. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tahrir hay’ati: Allahyarova, T., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog‘iston) Abasov, A.S., –f.f.d., professor (Azarbayjon) Axamer, G – f.f.d., professor (Avstriya) Buzarinejad, Y. – f.f.d, professor (Eron) Bilalov, M.I., – f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya) Kerimov, E. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Kurmangalieva, G. K., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Kurbonova, L.A. – f.f.d.DSc, dotsent (O‘zbekiston) Lazarevich, A.A. – f.f.d., professor (Belorus) Olatunji, Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Paxruddinov, Sh.I. – s.f.d., professor (O‘zbekiston) Pardayev, S. – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston) Sergeev, M.Y., – professor (AQSh) Sagikizi, A. – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Tulenova, G. J – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tesdelen, Vefa, – f.f.d., professor (Turkiya) Tyukmaeva A.M. – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Xudoydodzoda, F.B., – f.f.d., professor (Tojikiston) Xudoyberganov, R. – f.f.d.DSc, (O‘zbekiston) Mahmadizoda, N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. H – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya) Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. – (O‘zbekiston) Po‘latov A. – (O‘zbekiston)
--	--

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjonovich	MEDIASAVODXONLIK VA MA'NAVİY REFLEKSIYANING YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY BILISH MEXANIZMLARI SIFATIDAGI AHAMIYATI	9-20
Sapayev Valisher Odilbek o'g'li	RAQAMLI GEOSIYOSIY MAKONNING MAFKURAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI O'RNI	21-35
Seytalieva Nurzada Tugolbekovna	MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MILLIY MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY ONGGA TA'SIRI	36-45
Usmonov Saidikromxo'ja Saidalieвич	KIBERZO'ROVONLIK VA KIBERBULLINGNING IJTIMOY VOQELIK SIFATIDAGI MOHIYATI	46-56

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Seytaxmedova Natalya Lvovna	DINIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA YOSHLARNING MA'NAVİY-AXLOQIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	57-65
Qurbonova Lola Abdixodimovna	JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ELITAR TARBIYANING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI VA UNING INTELLEKTUAL ELITA SHAKLLANISHIDAGI ROLI	66-76
Xidirov Mustafu Toyirqulovich	ZAMONAVIY FAN TARAQQIYOTIDA BILIM VA FAOLIYATNING O'ZGARUVCHANLIGI VA DAVR RUHI BILAN INTEGRATSIYASI	77-86

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Oni Maykl Olatunji	SARTR GUMANIZMI AFRIKADA MADANIY IDEALLAR TRANSFORMATSIYASI UCHUN IMPERATIV SIFATIDA	87-98
Mayliyev Azamat Farxod o'g'li	STRATEGIK TAFAKKUR VA IJTIMOY MAS'ULIYATNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI	99-109

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Ademola, Julius Olajide	GERASALIK JIN CHALINGAN KISHINING SHIFO TOPISHI GERMENEVTIKASI: CHRIST APOSTOLIC CHURCH, IBADAN, NIGERIYA MISOLIDA	110-122
Akinnavo Yetunde Abolaji, Deji Isaac Ayegboyin	NIGERIYADAGI AFRIKA PENTEKOSTALIZMIDA IDENTIFIKATSIYANING MA'NAVİY GRAMMATIKASI	123-136
Ganjiyev Shuxratjon Jurayevich	HARBIY XIZMATCHILAR MA'NAVİY DUNYOQARASHIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRINING IJTIMOY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI	137-149
Tulyayev Avazbek Ilhomovich	SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY JAMIYAT AXLOQIY ONGGINING TRANSFORMATSIYASI	150-160

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI
ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ И ФИЛОСОФИЯ ИСТОРИИ
HISTORY OF PHILOSOPHY AND PHILOSOPHY OF HISTORY

УДК: 37.018:326.79:19.022.4

 10.5281/zenodo.20717478

Mayliyev Azamat Farxod o'g'li
ISFT instituti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: azamata37222880@gmail.com
(Toshkent, O'zbekiston)

STRATEGIK TAFAKKUR VA IJTIMOY MAS'ULIYATNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya. Strategik tafakkur insoniyat tafakkur taraqqiyotining murakkab va ko'p qatlamli mahsuli sifatida voqelikni nafaqat mavjud holatida idrok etish, balki uning istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini, ehtimoliy transformatsiyalarini va tizimli oqibatlarini oldindan anglashga qaratilgan oliy intellektual faoliyat shakli hisoblanadi. Ijtimoiy mas'uliyat kategoriyasi esa shaxsning o'z faoliyati, qarori va xatti-harakatlari uchun jamiyat, davlat, harbiy jamoa va kelajak avlodlar oldidagi javobgarligini anglash darajasini ifodalaydi. Bu kategoriya tarixiy-falsafiy rivoj jarayonida axloqiy burch, fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy adolat g'oyalari bilan uyg'unlashib kelgan. Harbiy xizmatchi misolida ijtimoiy mas'uliyat yanada murakkab mazmun kasb etadi, chunki uning har bir qarori nafaqat shaxsiy yoki kasbiy natija, balki inson hayoti, jamoa xavfsizligi, davlat mudofaasi va milliy manfaatlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Mazkur maqolada aynan shu birlikning nazariy asoslari, tarixiy ildizlari, ijtimoiy-falsafiy mazmuni va harbiy faoliyatga daxldor metodologik ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: strategik tafakkur, harbiy xizmatchi, tafakkur, transformatsiya, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat, fenomen.

KIRISH

Strategik tafakkur tushunchasining falsafiy talqini va evolyutsiyasini o'rganish uning tarixan insonning borliqni oldindan anglash, maqsad qo'yish, vosita tanlash va natijani bashorat qilish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllanganini ko'rsatadi. Antik davr falsafasida oqilona boshqaruv, Sharq tafakkurida adolatli siyosat va dono rahbarlik, yangi davr falsafasida ratsional rejalashtirish, zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarda esa tizimli tahlil, xavfni baholash va strategik prognozlash mazkur tushunchaning mazmunini boyitgan. Harbiy xizmatchi faoliyatida strategik tafakkur vaziyatni yuzaki emas, balki sabab-oqibat, maqsad-vosita-natija, xavf-imkoniyat hamda burch-mas'uliyat birligi orqali idrok etishni talab qiladi.

Ijtimoiy mas'uliyat kategoriyasi esa shaxsning o'z faoliyati, qarori va xatti-harakatlari uchun jamiyat, davlat, harbiy jamoa va kelajak avlodlar oldidagi javobgarligini anglash darajasini ifodalaydi. Bu kategoriya tarixiy-falsafiy rivoj jarayonida axloqiy burch, fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy adolat g'oyalari bilan uyg'unlashib kelgan. Harbiy xizmatchi misolida ijtimoiy mas'uliyat yanada murakkab mazmun kasb etadi, chunki uning har bir qarori nafaqat shaxsiy yoki kasbiy natija, balki inson hayoti, jamoa xavfsizligi, davlat mudofaasi va milliy manfaatlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Strategik tafakkur va ijtimoiy mas'uliyatning o'zaro dialektik bog'liqligi shundaki, mas'uliyatsiz strategik tafakkur texnokratik, sovuq va xavfli qarorlar tizimiga aylanishi mumkin; strategik tafakkursiz ijtimoiy mas'uliyat esa faqat ezgu niyat darajasida qolib, real harbiy-amaliy samaradorlikka ega bo'lmaydi. Shu sababli harbiy xizmatchi shaxsida bu ikki sifatning uyg'un shakllanishi zamonaviy harbiy faoliyatning muhim falsafiy sharti hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu birlikning nazariy asoslari, tarixiy ildizlari, ijtimoiy-falsafiy mazmuni va harbiy faoliyatga daxldor metodologik ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Strategik tafakkur insoniyat tafakkur taraqqiyotining murakkab va ko'p qatlamli mahsuli sifatida voqelikni nafaqat mavjud holatida idrok etish, balki uning istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini, ehtimoliy transformatsiyalarini va tizimli oqibatlarini oldindan anglashga qaratilgan oliy intellektual faoliyat shakli hisoblanadi. Mazkur fenomenning falsafiy mohiyati insonning vaqt va makon doirasidagi mavjudlikni ongli ravishda boshqarish ehtiyojidan kelib chiqadi. Shu sababli strategik tafakkur tarixiy jihatdan oddiy amaliy fikrlashdan murakkab refleksiv, prognostik va transformatsion tafakkur darajasigacha evolyutsiyalashgan. Uning falsafiy talqini ontologik jihatdan borliqning harakat va rivojlanish qonuniyatlarini anglashga, epistemologik jihatdan esa voqelikning ichki sabab-oqibat bog'lanishlarini bilishga, aksiologik jihatdan esa maqsad va qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashga asoslanadi.

Strategik tafakkurning nazariy asoslarini ishlab chiqqan rus olimi I.G. Rebeshchenkova strategik tafakkurni zamonaviy jamiyatning intellektual taraqqiyot omili sifatida baholab, "strategik intellekt milliy resursga aylanmoqda, strategik tafakkurni shakllantirish esa ijtimoiy rivojlanish va boshqaruvning strategik maqsadi sifatida namoyon bo'lmoqda" [I.G. Rebeshchenkova, 2005, b. 47-50], deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrning metodologik ahamiyati shundaki, muallif strategik tafakkurni individual psixologik qobiliyat emas, balki jamiyat taraqqiyotining epistemologik resursi sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, uning strategik tafakkurni murakkab tizimlar, noaniqlik va tezkor o'zgarishlar sharoitida qaror qabul qilishning nazariy asosi sifatida ko'rsatishi zamonaviy postindustrial jamiyatning ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir. Muallifning konsepsiyasida strategik tafakkur oddiy rejalashtirishdan farqli ravishda voqelikning istiqboldagi holatlarini modellashtirish imkonini beruvchi bilish shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Strategik tafakkurning metodologik va akmeologik jihatlarini chuqur o'rgangan O.S. Anisimov "strategik tafakkurning eng yuqori samaradorligi sivilizatsion, ontologik, mantiqiy, sotsiomadaniy va metodologik yondashuvlarning integratsiyasi orqali yuzaga keladi" [O.S. Anisimov, 2016, № 4. – B. 53-57], deya qayd etadi. Ushbu qarash strategik tafakkurning ko'p o'lchovli tabiatini ochib beradi. Muallif strategik tafakkur samaradorligini faqat analitik fikrlash bilan emas, balki insonning refleksiv salohiyati, ontologik tasavvurlari va metodologik madaniyati bilan bog'laydi. Ayniqsa, Anisimovning "strategik fikrlashning haqiqiy samaradorligi texnologik shakl va resurslarning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi" [O.C. Anisimov, 2016, – C. 64–68] degan xulosasi strategik tafakkurning amaliy va nazariy birlik sifatidagi mohiyatini yoritishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Strategik tafakkur evolyutsiyasining zamonaviy boshqaruv paradigmasidagi o'rnini ochib bergan N.D. Strekalova uni "kelajakni ko'ra bilish, tizimli fikrlash, muqobil variantlarni baholash va innovatsion qarorlar ishlab chiqishga xizmat qiluvchi murakkab intellektual kompetensiya" [N.D. Strekalova, 2018. – T.17. – № 3. – B. 384-401] sifatida ta'riflaydi. Muallifning ushbu yondashuvi strategik tafakkurning evolyutsiyasini oddiy rejalashtirishdan kreativ va innovatsion tafakkur darajasigacha ko'tarilganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Strekalovanning strategik tafakkur tarkibiga "tizimli ko'rish", "intellektual moslashuvchanlik", "gipotezalar yaratish" va "strategik alternatalarni baholash" kabi elementlarni kiritishi mazkur tushunchaning zamonaviy epistemologik mazmunini yanada boyitadi.

Strategik tafakkurning falsafiy-mantiqiy mohiyatini tadqiq etgan V.A. Maxonin esa "strategik tafakkur – strategik xarakterdagi hodisa va jarayonlarning mohiyatini, ular o'rtasidagi qonuniy bog'liqliklarni maqsadli va umumlashtirilgan tarzda anglashga qaratilgan tafakkur shaklidir" [V.A. Maxonin, 2019, – C. 48–54], deb yozadi. Muallifning fikricha, strategik tafakkur hodisalarni alohida faktlar sifatida emas, balki murakkab tizim elementlari o'rtasidagi bog'lanishlar orqali tushuntiradi. Ushbu qarash Gegel dialektikasi va zamonaviy tizimli yondashuvlar bilan metodologik uyg'unlik hosil qiladi. Ayniqsa, Maxonin strategik tafakkurning mantiqiy asoslarini chuqur tahlil qilib, uning mohiyatini strategik xarakterdagi voqelikni konseptual darajada anglash qobiliyati bilan bog'laydi.

Strategik tafakkurning tarixiy-madaniy shakllarini o'rganishda M.B. Marinovning Xitoy strategik tafakkuri haqidagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif "xitoy strategik tafakkurining mohiyati to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshilikda emas, balki voqelikning yashirin tendensiyalarini ilg'ash va ulardan foydalanish san'atida namoyon bo'ladi" [M.B. Marinov, 2012, – C. 54–61], deb ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv strategik tafakkurning Sharq va G'arb an'analari o'rtasidagi farqlarini ko'rsatadi. Agar G'arb strategik tafakkuri ratsional tahlil va maqsadli rejalashtirishga asoslangan bo'lsa, Sharq strategik tafakkuri voqelikning yashirin imkoniyatlarini anglash va bilvosita ta'sir mexanizmlaridan foydalanishga tayanadi. Bu esa strategik tafakkurning sivilizatsion shakllari turlicha bo'lishi

mumkinligini ko'rsatadi. Tarixiy tafakkur va strategik tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etgan Shermuxammad Eshbekovich "tarixiy ong va tarixiy tafakkur jamiyatning o'zini anglashi omillaridan biridir" [Sh. Eshbekov, 2024. – B. 619–621], deb yozadi. Mazkur fikr strategik tafakkur evolyutsiyasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Chunki har qanday strategik qarash tarixiy tajriba va tarixiy xotira asosida shakllanadi. Muallifning tarixiy ongni kelajakni anglash vositasi sifatida talqin qilishi strategik tafakkurning vaqt kategoriyasi bilan dialektik bog'liqligini ochib beradi.

Zamonaviy kognitiv tadqiqotlar strategik tafakkurning refleksiv tabiatini ham ko'rsatmoqda. A.D. Raximova "metakognitsiya fikrlashni nazorat qilsa, epistemik tafakkur bilimning ishonchliligi va asoslanganligini baholaydi" [A.D. Raximova, 2026. – B. 374–379], deb qayd etadi. Ushbu qarash strategik tafakkurning zamonaviy epistemologik modelini yaratishda muhim nazariy asos hisoblanadi. Chunki strategik qarorlar faqat axborotni qabul qilish bilan emas, balki uning ishonchliligi va istiqboldagi qiymatini baholash qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shunday qilib, strategik tafakkur tushunchasining falsafiy evolyutsiyasi inson tafakkurining vaziyatli-amaliy fikrlash bosqichidan murakkab refleksiv-prognostik va transformatsion tafakkur darajasigacha ko'tarilganligini ifodalaydi

Strategik tafakkur tushunchasining falsafiy talqini, avvalo, uni oddiy harbiy hiyla, boshqaruv algoritmi yoki uzoq muddatli reja bilan ayniylashtirmaslikni taqozo etadi; strategik tafakkur — bu maqsad va vosita, kuch va legitimlik, vaqt va imkon, bilim va noaniqlik o'rtasidagi nisbatlarni bir butun holda ko'ra oladigan refleksiv tafakkur shaklidir. Beatrice Heuser bu terminning tarixiy taqdirini tahlil qilar ekan, "strategiya" so'zining qo'llanishi "vaqt o'tishi bilan juda sezilarli darajada o'zgargan"ini qayd etadi; uning ko'rsatishicha, qadimgi yunon dunyosida strategiya sarkardaning san'ati va mahoratini anglatgan, Vizantiya tafakkurida esa taktika bilan farqlangan yuqori darajadagi yo'naltiruvchi kategoriya sifatida shakllangan, keyinchalik esa siyosiy maqsadlar bilan kuch ishlatish yoki uning tahdidi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi kengroq tushunchaga aylangan. [Beatrice Heuser, 2010. – 1-bob: B. 3–36-].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XX asrga kelib strategik tafakkur tushunchasi harbiy-siyosiy doiradan chiqib, boshqaruv va tashkilot nazariyasida yangi epistemologik mazmun kasb etdi. Mintzberg "strategik rejalashtirish strategik tafakkur emas; biri tahlil, ikkinchisi sintez" deb yozar ekan, eng muvaffaqiyatli strategiyalar "rejalalar emas, balki ko'rishlar" ekanini alohida ta'kidlaydi [Mintzberg, 1994. – B. 107–114]. Bu fikrning ilmiy-ijodiy ahamiyati shundaki, u strategik tafakkurni formal protsedura emas, intuitiv-sintezlovchi va tajriba bilan oziqlanuvchi ong faoliyati sifatida tushuntiradi; tanqidiy jihatdan esa, tahlildan keskin uzoqlashish xavfi tug'ilib, intuitsiyani romantizatsiya qilish ehtimoli paydo bo'ladi. Jeanne M. Liedtka bu muammoni chuqurlashtirib, strategik tafakkurni "o'ziga xos atributlarga ega tafakkur usuli" deb ta'riflaydi va uning tizimli ko'ra bilish, maqsadga

yo‘naltirilganlik, vaqt ichida fikrlash, gipotezaga tayanuvchanlik hamda “aqlli opportunizm” kabi unsurlarini ajratadi [Jeanne M. Liedtka, 1998. –B. 120–129]. Bu modelning ilmiy-ijodiy ustunligi — strategik tafakkurni sof ilhom yoki sof reja darajasida emas, balki tizim, vaqt va ehtimoliylikni birlashtiruvchi murakkab bilish-amaliyot birligi sifatida asoslashidadir; biroq ilmiy-tanqidiy nuqtai nazardan, mazkur yondashuv ko‘proq korporativ boshqaruv kontekstida ishlab chiqilgani sababli, hokimiyat asimmetriyasi, ijtimoiy adolat, tarixiy xotira va sivilizatsion legitimlik kabi falsafiy kategoriyalarni yetarli darajada ochmaydi.

Strategik tafakkur tushunchasining falsafiy talqini, avvalo, uni oddiy rejalashtirish, taktik epchillik yoki qisqa muddatli foyda hisobidan farqlashni talab qiladi, chunki B. Heuser ko‘rsatganidek, strategiya atamasining o‘zi “vaqt o‘tishi bilan juda sezilarli darajada o‘zgargan”, ya‘ni u dastlab sarkardaning san‘ati va mahoratini anglatga, keyinchalik siyosiy maqsadlar bilan kuch ishlatish yoki uning tahdidi o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ifodalovchi yuksak nazariy kategoriya maqomiga ko‘tarilgan [B. Heuser, 2010. –B. 3–6]. Bu yondashuvning ilmiy-ijodiy qimmatini shundaki, u strategik tafakkurni tor harbiy doiradan chiqarib, jamiyat, siyosat, madaniyat va hokimiyat munosabatlari bilan tutashgan tarixiy ong shakli sifatida talqin qilish imkonini beradi, biroq uning zaif tomoni ham mavjud, chunki semantik evolyutsiyani yoritish strategik tafakkurning ichki me‘yoriy mohiyatini o‘z-o‘zidan ochib bermaydi va mazmuniy pluralizm ayrim hollarda tushunchaning chegaralarini xiralashtiradi.

Qadimgi Sharq tafakkurida Sun Tzu strategiyani epistemik ustunlik va vaziyatni ong orqali boshqarish san‘ati sifatida yuksak darajada ifodalagan mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi, chunki uning nazarida “eng oliy mahorat dushman qarshiligini jangsiz sindirishdir” va “dushmanni ham, o‘zingni ham bilsang” natija ustidan qo‘rquv kamayadi [Sun Tzu, 2000. –B. 8, 11–12]. Bu yerda strategik tafakkur kuchni ko‘paytirishdan avval bilimni chuqurlashtirish, to‘qnashuvni emas, qaror maydonini boshqarish, vaqt va vaziyatni oldindan egallash san‘atiga aylanadi. Sun Tzuning yana bir muhim g‘oyasi shundaki, yaxshi jangchi avval mag‘lubiyat ehtimolini bartaraf etadi, keyin g‘alaba imkonini kutadi, demak strategik tafakkur xavfni oldindan so‘ndirish, noaniqlikni kamaytirish va imkoniyatni payqash qobiliyatidir [Sun Tzu, 2000. –B. 8, 11–12]. Ushbu yondashuvning ilmiy-ijodiy qudrati aynan shunda namoyon bo‘ladiki, u strategiyani zo‘ravonlikning kulminatsiyasi emas, bilishning ustuvorligi sifatida ko‘rsatadi, ammo uning tanqidiy zaif tomoni ham bor, chunki unda samaradorlik birlamchi bo‘lib, legitimlik, adolat va axloqiy javobgarlik masalalari ko‘pincha ikkinchi planra suriladi. N. Machiavelli strategik tafakkurni davlat aqli, qudrat va siyosiy barqarorlik bilan uzviy bog‘lagan holda “hukmdor boshqa hech narsani emas, urush va uning qoidalari hamda intizomini o‘rganishi kerak” deya ta‘kidlaydi va buning uchun geografik makon, relyef, harakat yo‘nalishlari hamda mudofaa sharoitlarini chuqur bilish zarurligini ko‘rsatadi [N. Machiavelli, 2000. –B. 107–109]. Bu qarash strategik tafakkurni harbiy tajriba, siyosiy hokimiyat va makoniy tasavvur sintezi sifatida namoyon etadi.

Shunday qilib, strategik tafakkur tushunchasining falsafiy evolyutsiyasi qadimgi davrda maqsad va g'alaba o'rtasidagi teleologik aloqani tushuntirgan Aristoteldan, bilish va vaziyatni boshqarishni markazga qo'ygan Sun Tzuga, davlat aqli va hokimiyat barqarorligini asoslagan Machiavelliga, siyosat va urush dialektikasini ochgan Clausewitzga, nihoyat strategiyani sintez, ko'rish, tizimlilik va noaniqlik bilan ishlash qobiliyati sifatida qayta talqin qilgan Mintzberg va Liedtkagacha uzluksiz ravishda kengayib borgan intellektual jarayondir. Bizningcha, ushbu evolyutsiyaning ichki mantiqi shuni ko'rsatadiki, strategik tafakkur mohiyatan kelajakni ko'rish emas, balki maqsadni anglash, vositalarni baholash, vaqtni his qilish, makonni o'qish, kuch va bilim nisbatini tushunish, oqibatlarni oldindan ko'ra bilish va ayni paytda axloqiy cheklovni saqlab qolish qobiliyatidir. Shu ma'noda strategik tafakkur sof instrumentallikdan yuksalib, amaliy donolikning tarixan murakkablashgan shakliga aylanadi. Agar unda faqat samaradorlik bo'lsa, u manipulyativ hisob-kitobga tushib qoladi. Agar unda faqat axloq bo'lib, vaziyat tahlili bo'lmasa, u siyosiy nochorlikka aylanadi. Demak, falsafiy jihatdan barkamol strategik tafakkur maqsad, vosita, erkinlik, javobgarlik va tarixiy ongning dialektik birligidir.

I.G. Rebeshchenkova strategik tafakkur muammosini oddiy boshqaruv texnikasi doirasidan chiqarib, uni zamonaviy falsafa va psixologiya to'laqonli kategoriyasi sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, bugungi murakkab, tezkor va ziddiyatli ijtimoiy muhitda "strategik intellekt milliy resurs" darajasiga ko'tariladi [I.G. Rebeshchenkova, 2007. –B. 47–53]. Bu juda kuchli tezisdir, chunki u strategik tafakkurni faqat menejer, siyosatchi yoki harbiy mutaxassisning funksional ko'nikmasi emas, balki jamiyatning rivojlanish salohiyati bilan bog'langan epistemik quvvat deb talqin qiladi. Muallifning yana bir muhim xulosasi shuki, strategik tafakkur faqat bugunning mahsuli emas, u "insonning rodiy mohiyatining muhim ko'rinishi"dir. Demak, uning evolyutsiyasi so'nggi davr ixtirosi emas, balki insonning oldindan ko'ra bilish, oqibatni hisobga olish va kelajakni maqsadli qurish qobiliyatining tarixiy-madaniy murakkablashuvidir. Mazkur yondashuvning ilmiy-ijodiy ahamiyati shundaki, strategik tafakkur bu yerda bilishning alohida rejimi sifatida namoyon bo'ladi. Uning tanqidiy tomoni shundaki, Rebeshenkova ba'zan strategik tafakkurning universalligini haddan tashqari keng talqin qiladi va natijada uning aniq differensial belgilarini boshqa murakkab fikrlash shakllaridan qat'iy ajratish qiyinlashadi. Shunga qaramay, aynan u strategik tafakkurni epistemologik muammo sifatida jiddiy kun tartibiga olib chiqadi.

Rebeshenkova strategik tafakkurning tarixiy ildizlarini Aristotel va B.M. Teplov orqali amaliy aql an'anasi bilan bog'laydi. U strategik tafakkurni amaliy tafakkurning bir ko'rinishi sifatida sharhlar ekan, unda tahlil, sintez, xotira, tasavvur, fazoviy-vaqt tasavvurlari va intuitsiya bir butun mexanizm sifatida ishlashini ko'rsatadi. Ayniqsa, risk bilan bog'liq qismi e'tiborga molikdir. Muallif strategik tafakkur rivoji doimo xavf, noaniqlik va qaror narxi bilan yonma-yon borganini ta'kidlaydi. Bizningcha, shu nuqtada strategik tafakkurning falsafiy mohiyati yanada ravshanlashadi, u faqat kelajakni ko'rish emas, balki kelajak

oldidagi mas'uliyatni ko'tarish qobiliyatidir. Strategik tafakkur o'z mohiyatida epistemik, aksiologik va prakseologik qatlamlarni birlashtiradi. Aynan shu integrativ xarakter uni oddiy rejalashtirishdan ajratadi.

V.A. Maxonin strategik tafakkur atrofidagi intuitiv va tartibsiz terminologiyani keskin tanqid qiladi. Uningcha, ko'plab mualliflar "strategik tafakkur" va "strategik tahlil" iboralarini odat tusida qo'llaydilar, lekin ularning mazmunini mantiqan aniqlashtirmaydilar. Muallifning "strategik tahlil faqat metod" degan g'oyasi va strategik tafakkur "mantiq qoidolari bo'yicha" amalga oshirilishi lozimligi haqidagi da'vosi masalani juda muhim tomonga buradi [V.A. Maxonin, 2018. № 5. C. 48–56]. Bu yondashuvda strategik tafakkur tasodifiy ilhom, umumiy sezgi yoki mavhum uzoqni ko'rish emas, balki mantiqiy tartibga solingan, obyekt va miqyos jihatidan aniqlashtirilgan tafakkur sifatida ko'rinadi. Maxonin strategiya tushunchasini ham aniqlashtirib, uni "ilmiy asoslangan qoidalar tizimi" va ma'lum subyekt uchun "eng muhim, keng ko'lamli va uzoq muddatli yo'nalish"ni ifodalovchi faoliyat negizi deb ko'rsatadi. Bu yondashuvning ilmiy-ijodiy qimmati shundaki, u strategik tafakkurni ritorikadan chiqarib, kategorial intizom maydoniga olib kiradi. Uning tanqidiy cheklovi esa shundaki, haddan tashqari mantiqiy qat'iyashtirish strategik tafakkurning intuitiv, simvolik va oldindan to'liq formalizatsiya qilib bo'lmaydigan jihatlarini biroz toraytiradi. Shunga qaramay, strategik tafakkurning haqiqiy nazariy mavqeini tiklash uchun bunday mantiqiy tozalash zarur.

Maxonin yana bir nozik masalani ko'taradi, strategik tafakkur har qanday tafakkur emas, u aynan strategik darajadagi obyektlar, jarayonlar va subyektlar bilan ishlovchi tafakkurdir. Shuning uchun u miqyosni, vaqt ufqini va faoliyatning ustuvor yo'nalishini o'z ichiga oladi. Strategik tafakkurning bu talqinida ikki muhim falsafiy oqibat mavjud. Birinchisi, har qanday keng fikrlash strategik emas. Ikkinchisi, strategik tafakkur o'z predmetini tanlashning o'zidayoq aksiologik va siyosiy tanlovni amalga oshiradi. Ya'ni bu tafakkur nimani muhim deb bilishini, nimani uzoq muddatli maqsad deb tan olishini va nimani ustuvor yo'nalish sifatida belgilashini oldindan hal qiladi. Bu jihat Maxonin konsepsiyasini kuchaytiradi. Chunki strategik tafakkur faqat metod emas, u selektiv va me'yoriy idrok shaklidir.

V.V. Kazakov strategik tafakkur atrofida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan asosiy nazariy yo'nalishlarni qiyosiy tarzda bir maydonga olib chiqadi. Uning sharhiga ko'ra, G. Simon strategik tafakkur "bahs jarayonida" shakllanishini ko'rsatadi [V.V. Kazakov, 2009. № 12-1(148). C. 38–42]. Bu juda muhim, chunki strategik qaror bu yerda individual monolog emas, cheklangan axborot sharoitida olib borilgan dialogik tanlovdir. I. Ansoff esa strategik tafakkurni "yuqoridan pastga" tashkil etilgan oqilona tuzilma sifatida talqin qiladi va unda rejalashtirish, javobgarlikni birlashtirish va qarorni joriy etish bir-biridan ajralmas bosqichlar ekanini ko'rsatadi. M. Porter strategik tafakkurni tarmoq va raqobat kuchlari bilan bog'lab, subyektni o'z joyini topishga majbur etadi. G. Mintzberg esa bu rasmiy tuzilmalarni yumshatib, "menedjment san'atidir" degan mazmundagi pozitsiyaga yaqinlashadi va strategik qaror bilan uning real ijrosi orasidagi vaqt farqini ochib beradi. T. Peters, G. Hamel va K. Prahalad

yoʻnalishida esa strategik tafakkur tobora nostandartlik, ichki kuchlar, ambitsiya va noyob kompetensiyalar maydoniga koʻchadi. Bu qatorning ilmiy-ijodiy ahamiyati shundaki, strategik tafakkur evolyutsiyasi qatʼiy ratsionalizmdan cheklangan ratsionallikka, undan esa ijodiy va kompetensiyaviy paradigmalariga oʻtganini yaqqol koʻrsatadi. Biroq tanqidiy jihatdan aytganda, Kazakovning koʻrinishi koʻproq gʻoyalar ketma-ketligini tavsiflaydi, ularning ichki falsafiy ziddiyatini toʻliq dramatisatsiya qilmaydi. Lekin aynan shu umumlashtirish strategik tafakkurning koʻp manbali va koʻp markazli evolyutsiyasini koʻrishga yordam beradi.

A.A. Gromyko strategik tafakkurni xalqaro munosabatlar misolida sharhlar ekan, uni uchta tayanch savol atrofida jamlaydi, yaʼni “atrofda nima sodir boʻlmoqda”, “bu holatda men uchun qanday xavflar bor”, “men nima qilishim kerak” [A.A. Gromyko, 2016. № 2. B. 6–9]. Mazkur triada strategik tafakkurning falsafiy minimal formulasini beradi, chunki unda bilish, baholash va harakat birbiridan ajralmaydi. Bu yondashuvning ilmiy-ijodiy ahamiyati shundaki, strategik tafakkur bu yerda shunchaki uzoq muddatli reja emas, balki kontekstni anglash, riskni nomlash va javob mexanizmini ishlab chiqishdan iborat boʻlgan refleksiv ong shakli sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ilmiy-tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, Gromyko modeli kuchli darajada geosiyosiy realiya va davlat markazli tasavvurga tayangan.

V.A. Makhonin esa strategik tafakkur tushunchasini mantiqiy jihatdan tozalashga urinadi va “strategik tafakkur” hamda “strategik tahlil” iboralarini intuitiv qoʻllashni yetarli deb bilmaydi. Uningcha, strategik tafakkur “mantiq qoidalari boʻyicha” amalga oshirilgan taqdirdagina ilmiy maqom kasb etadi. Muallif strategik tafakkurni “strategik darajadagi subyektlar, hodisalar va jarayonlarning mohiyatini” anglashga qaratilgan tafakkur turi sifatida belgilaydi [V.A. Makhonin, 2018. № 5. C. 48–56]. Bu talqinning falsafiy kuchi shundaki, u strategik tafakkurni ritorika yoki boshqaruv modasidan ajratib, uni tushunchaviy intizom, tasnif, dalillash va mantiqiy asoslash maydoniga qaytaradi. Uning tanqidiy cheklovi esa shundaki, haddan tashqari mantiqiy-meʼyoriy qatʼiylik strategik tafakkurning intuitiv, obrazli va hali toʻliq formallashtirmagan tomonlarini bir oz toraytiradi. Shunga qaramay, Makhonin strategik tafakkur evolyutsiyasidagi juda muhim bosqichni ifodalaydi, yaʼni bu tushuncha harbiy-amaliy tilning odatiy metaforasidan chiqib, falsafiy-mantiqiy kategoriya darajasiga koʻtariladi.

XULOSA

Koʻrib chiqilgan manbalar asosida strategik tafakkur tushunchasining falsafiy evolyutsiyasi toʻrt asosiy siljishda namoyon boʻladi. Avval u xalqaro va harbiy-siyosiy realiyaga mos ravishda kontekst, xavf va javob triadasi bilan tavsiflangan geosiyosiy ong shakli sifatida koʻrinadi. Keyin u sharqona tafakkur doirasida moment, oʻtish va kontinyuallikni ushlovchi protsessual ong shakliga aylanadi. Uchinchi bosqichda u koʻp oʻlchamli fazoviy tasavvur va stratagemik modellash bilan boyiydi. Nihoyat, toʻrtinchi bosqichda u refleksiv, mantiqiy va ontologik jihatdan oʻzini oʻzi asoslaydigan tafakkur madaniyati maqomiga yetadi. Demak, strategik tafakkurning falsafiy talqini uni faqat boshqaruv vositasi

sifatida emas, balki insonning tarixiy mavjudligi, mas'uliyati va istiqbol qurish qobiliyatining yuksak shakli sifatida tushunishni talab qiladi.

Strategik tafakkur va ijtimoiy mas'uliyatning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur kategoriyalar harbiy xizmatchi shaxsining intellektual salohiyati, ma'naviy-axloqiy yetukligi va kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi o'zaro uzviy bog'liq falsafiy hodisalardir. Strategik tafakkur insonning voqelikni oddiy empirik idrok etish darajasidan yuqori turuvchi, kelajakni oldindan ko'ra bilish, murakkab ijtimoiy-harbiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish, xavf va imkoniyatlarni baholash, maqsad, vosita va natija o'rtasidagi sababiy aloqadorlikni anglashga yo'naltirilgan refleksiv-intellektual faoliyat shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa strategik tafakkurning faqat boshqaruv yoki harbiy rejalashtirish vositasi emas, balki shaxsning ijtimoiy borliqni mas'uliyat bilan anglash, kelajak oqibatlarini baholash va tarixiy zaruratni ongli ravishda idrok etish qobiliyati ekanligini asoslaydi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Ребеценкова И.Г. Эпистемологические основы стратегического мышления // Научная статья. 2005.- Б. 47-50.
2. Анисимов О.С. Акмеологические факторы повышения эффективности стратегического мышления руководителя // Акмеология. – 2016. – № 4. – Б. 53-57.
3. Анисимов О.С. Эффективность стратегического мышления и рационального мышления // Вестник Международной академии наук. – 2016. – № 1. – Б. 64-68.
4. Стрекалова Н.Д. Стратегическое мышление менеджеров: сущность, проблемы и подходы к развитию // Вестник Санкт-Петербургского университета. Управление. – 2018. – Т.17. – № 3. – Б. 384-401.
5. Махонин В.А. Стратегическое мышление и стратегический анализ: подходы к пониманию терминов // Военная теория и практика. – С. 48–54.
6. Маринов М.Б. Принципы китайского стратегического мышления // Научная статья. – 2012. – С. 54–61.
7. Sh. Eshbekov Milliy g'oya tarixini anglashda tarixiy tafakkur omili // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Б. 619–621.
8. Raximova A.D. Metakognitsiya va epistemik tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik // Inter Education & Global Study. – 2026. – Б. 374–379.
9. Mintzberg, Henry. "The Fall and Rise of Strategic Planning" // Harvard Business Review. – 1994. – Vol. 72, No. 1. – 107–114-b.
10. Liedtka, Jeanne M. "Strategic Thinking: Can It Be Taught?" // Long Range Planning. – 1998. – Vol. 31, No. 1. – 120–129-b.
11. Heuser, Beatrice. The Evolution of Strategy: Thinking War from Antiquity to the Present. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. Iqtibos keltirilgan betlar: 3–6.
12. Sun Tzu. Sun Tzu on the Art of War: The Oldest Military Treatise in the World / translated by Lionel Giles. Leicester: Allandale Online Publishing, 2000. 66 p. Iqtibos keltirilgan betlar: 8, 11–12.

13. Sun Tzu. Sun Tzu on the Art of War: The Oldest Military Treatise in the World / translated by Lionel Giles. Leicester: Allandale Online Publishing, 2000. 66 p. Iqtibos keltirilgan betlar: 8, 11–12.

14. Machiavelli, Niccolò. The Prince. Elektron nashr, 1513 matnining PDF talqini. Iqtibos keltirilgan betlar: 107–109.

15. Mintzberg, Henry. “The Fall and Rise of Strategic Planning” // Harvard Business Review. 1994. Vol. 72, No. 1. 107–114-b. Iqtibos keltirilgan betlar: 107–109.

16. Liedtka, Jeanne M. “Strategic Thinking: Can It Be Taught?” // Long Range Planning. 1998. Vol. 31, No. 1. 120–129-b. Iqtibos keltirilgan betlar: 120–125.

17. Ребешенкова И.Г. Эпистемологические основы стратегического мышления // Научно-технический вестник СПбГУ ИТМО. 2007. Вып. 36. С. 47–53.

18. Макхонин В.А. Стратегическое мышление и стратегический анализ: подходы к пониманию терминов // Военная мысль. 2018. № 5. С. 48–56.

19. Казаков В.В. В чем заключается стратегическое мышление? Различные теории стратегического мышления // Российское предпринимательство. 2009. № 12-1(148). С. 38–42.

20. Анисимов О.С. Эффективность стратегического мышления и “разумная” мыслетехника // Вестник Международной академии наук, Русская секция. 2016. № 1. С. 64–71.

21. Макхонин В.А. Стратегическое мышление и стратегический анализ: подходы к пониманию терминов // Военная мысль. 2018. № 5. С. 48–56.

Майлиев Азамат Фарходович

Сотрудник Национальной гвардии Республики Узбекистан

Национальная гвардия Республики Узбекистан

Департамент Республики Каракалпакстан

Заместитель командира воинской части 81416 по образовательным и идеологическим вопросам

azamata37222880@gmail.com

(Ташкент, Узбекистан)

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Аннотация. Стратегическое мышление, как сложный и многогранный продукт развития человеческой мысли, является высшей формой интеллектуальной деятельности, направленной не только на восприятие реальности в ее текущем состоянии, но и на прогнозирование ее будущих тенденций развития, возможных трансформаций и системных последствий. Категория социальной ответственности выражает уровень осознания человеком ответственности за свою деятельность, решения и действия перед обществом, государством, военным сообществом и будущими поколениями. В процессе историко-философского развития эта категория объединилась с

идеями морального долга, гражданской позиции, патриотизма, гуманизма и социальной справедливости. В случае военнослужащего социальная ответственность приобретает более сложное значение, поскольку каждое его решение напрямую связано не только с личными или профессиональными результатами, но и с человеческой жизнью, коллективной безопасностью, обороной государства и национальными интересами. В данной статье глубоко анализируются теоретические основы, исторические корни, социально-философское содержание и методологическое значение этого единства в отношении военной деятельности.

Ключевые слова: стратегическое мышление, военнослужащий, мышление, трансформация, гражданская позиция, социальная ответственность, феномен.

Mailiev Azamat Farkhodovich

Employee of the National Guard of the Republic of Uzbekistan

National Guard of the Republic of Uzbekistan

Department for the Republic of Karakalpakstan

Deputy Commander of Military Unit 81416 for Educational and Ideological Affairs

azamata37222880@gmail.com

(Tashkent, Uzbekistan)

SOCIAL-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF STRATEGIC THINKING AND SOCIAL RESPONSIBILITY

Annotation. Strategic thinking, as a complex and multi-layered product of the development of human thought, is a higher form of intellectual activity aimed not only at perceiving reality in its current state, but also at anticipating its future development trends, possible transformations and systemic consequences. The category of social responsibility expresses the level of awareness of a person's responsibility for his activities, decisions and actions before society, the state, the military community and future generations. This category, in the process of historical and philosophical development, has been combined with the ideas of moral duty, civic position, patriotism, humanism and social justice. In the case of a military serviceman, social responsibility acquires a more complex meaning, since each of his decisions is directly related not only to personal or professional results, but also to human life, collective security, state defense and national interests. This article deeply analyzes the theoretical foundations, historical roots, socio-philosophical content and methodological significance of this unity in relation to military activity.

Keywords: Strategic thinking, military serviceman, thinking, transformation, civic position, social responsibility, phenomenon.